PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARI YOSHLARIGA TA’LIM BERISHDA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB VAZIFALARI

Elmuratov Shaxobiddin Umirzakovich
Sirdaryo viloyati Sayxunobod tuman 1-son kasb-hunar maktabi Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotasiya: Maqolada professional ta’lim muassasalari talaba-o‘quvchilariga ta’lim berishda davlat tilida uchrayotgan muammolarni o‘rganish va tahlil qilish orqali yoshlarni ona tiliga bo‘lgan bilish ko‘nikmasini rivojlantirish va shu orqali o‘zbek tilining mavqeini yanada mustahkamlashdan iborat ekanligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.
Kalit so‘zlar: Integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, davlat ta’lim standarti, o‘zbek tili
Аннотация:В статье научно утверждается, что путем изучения и анализа проблем, возникающих при обучении студентов профессиональных образовательных учреждений государственному языку, необходимо развивать знания родного языка молодежи и тем самым еще больше укреплять позиции узбекского языка.
Ключевые слова: интегральный подход, компетентностный подход, государственный образовательный стандарт, узбекский язык.
Annotation: The article scientifically states that by studying and analyzing the problems that arise when teaching students of professional educational institutions the state language, it is necessary to develop knowledge of the native language of young people and thereby further strengthen the position of the Uzbek language.
Key words: integral approach, competence-based approach, state educational standard, Uzbek language.

Keyingi yillarda til ta’limiga kommunikativ yondashuv, integrar yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv kabi yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda. Xususan, jahonning yetakchi mamlakatlarida amal qilib kelayotgan va samarali natijalar berayotgan kompetensiyaviy yondashuvni til ta’limiga tatbiq etish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi 1875-sonli ―Chet tillarni o‘qitishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi maxsus qabul qilingan qarori va chet tillarini o‘qitish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar, davlat ta’lim standartlari talablarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi, chet tili o‘qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi ishlab chiqilgani, ta’lim jarayonining o‘quv-uslubiy adabiyotlar va zamonaviy vositalar bilan ta’minlanishi ta’lim sohasida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘ldi

Eng muhimi, til ta’limi bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari bilan birgalikda, o‘z fikrini boshqalarga tushuntira olish, boshqalarni tinglab ularni tushuna olish, bahsga kirishish, kundalik hayotda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘quvchi ushbu axborotlarni izlab topishi, tahlil qilish, bilim, ko‘nikma va malakalardan kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlarini shakllantirish zarur.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar sharofati bilan jahon tamadduni beshiklaridan biri, fan, ta’lim, madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i bo‘lgan yurtimizda barcha sohalar qatori o‘zbek tilimizni davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeini oshirish, uni yanada rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

O‘zbek tili qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so‘g‘diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi.

https://wordlyknowledge.uz

O‘zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda - Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarni yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “...Milliy tilni yo‘qotmak - millatning ruhini yo‘qotmakdur”, degan hikmatli so‘zlari ham mustahkam g‘oyaviy asosga ega bo‘lsa, Abdulla Qodiriyning o‘zbek tilining sofligini saqlagan holda, uni yanada rivojlantirib, boyitib bizgacha yetkazishdagi xizmatlari beqiyos.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinishi bilan (1989 yil 21 oktabr.) ona tilimizni rivojlantirishning huquqiy asosi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **“**Davlat suvireniteti” bobi 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” deb belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, degan norma kiritilib o‘zbek tiliga konstitutsiyaviy maqom berildi.

Ona tilimizning huquqiy maqomga erishishi zamirida o‘zbek tilining o‘ziga xos jozibasidan, boy lug‘atidan foydalanish bilan birga uni ilmiy asosda o‘rganish hamda yangi atamalar, so‘zlar bilan to‘ldirib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Qonun davlat boshqaruvida, ijtimoiy hayotda, xalqaro va millatlararo munosabatlarda, ishlab chiqarishda, sud ishlarida, notarial harakatlarda, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlarda, axborot olishda va boshqa inson hayoti va faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda davlat tili va boshqa tillarning qo‘llanilishini tartibga soldi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunga muvofiq o‘zbek tili davlat tili sifatida mamlakatimizda yashovchi millat va elatlarning tillari va boshqa xorijiy tillar bilan birgalikda rivojlanmoqda, bugungi kunda yurtimizda umumiy ta’lim yetti tilda olib borilayotganligi, ommaviy axborot vositalari ko‘rsatuv va eshittirishlarni o‘ndan ortiq tillarda efirga uzatayotganligi jamiyatimiz hayotida millatlararo ahillik va hamjihatlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmonida O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi. Shuningdek, mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi takomillashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan 21 oktabrni O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilanishi zamirida esa uzoqni ko‘zlagan siyosat, ona tilimizning jozibadorligini xalqaro maydonda namoyon qilish bilan birga, kelajakda ona tilimizning istiqbolini ta’minlash, o‘zbek tilini dunyo tillari darajasiga ko‘tarishdek ulkan maqsadlar belgilandi. Hozirgi kunda dunyoning 60 dan ortiq univesitetlari va markazlarida o‘zbek tilining o‘qitilishi, yurtimizdagi tajribali professor-o‘qituvchilarning Tokio universiteti, Turk universiteti, Xo‘jand universiteti, Janubiy Qozog‘iston universiteti, Balx universiteti, Gumbolt universiteti, Shanxay universiteti, Nigde universiteti kabi nufuzli oliy ta’lim muassasalarda o‘zbek tilidan dars berayotganliklari dunyo yoshlarining o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish Markazi hamda uning hududiy bo‘linmalarining tashkil etilishi nafaqat davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik boshqaruvi birlashmalarining xodimlarini malakasini oshirish, balki mamlakatimizda yashayotgan, davlat tilida ish yuritish

https://wordlyknowledge.uz

asoslarini o‘rganish istagida bo‘lgan fuqarolarning bepul malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratilishi natijasida davlat tilini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

O‘zbek tilining mamlakatimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirishda, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni davlatimiz ramzi bo‘lgan davlat tiliga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalashda ta’lim tizimi oldiga muhim vazifalar qo‘yiladi: Jumladan;

ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatishni takomillashtirish, davlat tilida ish yuritish qoidalarini o‘qitish, ularning bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish;

ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlar doirasida yoshlarda o‘zbek tilining yozma nutqi me’yor va qoidalarini o‘zlashtirishi, og‘zaki nutq madaniyatining shakllantirilishiga erishishi;

davlat tiliga hurmat va muhabbatni oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlashda jamoatchilik nazoratini olib borishda o‘quvchi-yoshlar va ta’lim sohasi xodimlarining mas’uliyatini oshirish;

nutqimizga qo‘llanilayotgan yangi so‘z va zamonaviy atamalarning o‘zbek tilidagi muqobil shaklini topish va iste’molga kiritishda faollik ko‘rsatish;

ta’lim muassasalarida 21 oktabr - O‘zbek tili bayrami kunini yuqori saviyada nishonlash kabilar.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalar bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarni davlat tilini bilish va kelgusi mehnat faoliyatida uning imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyorlash davlat tilini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishda o‘quvchi-yoshlarning davlat tilini rivojlantirishga oid mavzularda bilish ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish ishlarini olib borishga yo‘naltirish talab etiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam kuzatib borish va ularni bartaraf etishda, o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, davlat tiliga muhabbat hissini rivojlantirishda yoshlarning volonyorlik faoliyatidan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz